Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития .....	1136
Туйчиев Комилжон Лазизович	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati .....	1143
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish .....	1146
Umarov Abdulquddus Abdilqatovich	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах .....	1151
Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
Усманова Дилфузахон Иброхимовна	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities ....	1163
Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida) .....	1168
Kolmatov Sanjarbek Xojimamatovich	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishing asosiy ko'rsatkichlari.....	1174
Qilichev Umid Ibadullayevich	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choraları .....	1181
Xamraulova Gulnozaxon Faxriddin qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari .....	1185
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati .....	1191
Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati.....	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budget mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi .....	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari .....	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами .....	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar .....	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'llim sifatini ta'minlash oliv ta'llim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili.....	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish.....	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishing manbalari va yo'llari.....	1232
Raxmanov Ilhom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане .....	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике .....	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries .....	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari .....	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production .....	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari.....	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari.....	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiropi va ahamiyati.....	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari .....	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi.....	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida).....	1286
Mamatqulov Omonulla Mamayusupov	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами.....	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash .....	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	



# TIJORAT BANKLARI RESURSLARI SHAKLLANISHINING MANBALARI VA YO'LLARI

**Raxmanov Ixom Xurramovich**

Iqtisodiyot fanlari nomzodi, Toshkent moliya instituti,  
“Bank ishi” kafedrasi dotsenti

**Annotatsiya:** Bank resurslarining shakllanishi manbalari va yo'llarini tadqiq etish bank aktiv operatsiyalarini resurslarning tabiatiga ko'ra amalga oshirish imkonini beradi. Shu bois, mazkur maqlolada bank resurslari shakllanishining pul va kapital bozori manbalari o'rganildi. Tahlil uchun pul bozori va kapital bozori instrumentlari xususiyatlaridan foydalanildi. Shuningdek, tahlilda 2018-2022-yillarda O'zbekiston banklari majburiyatları va kapitali tarkibi keltirib o'tilgan. Tahlil natijalariga ko'ra, O'zbekistonda bank resurslari shakllanishida pul bozori instrumentlaridan samarali foydalanish va bu jihatdan kapital bozorini rivojlantirish zarurligi asoslangan. Tahlil jarayonida situatsion va strukturaviy usullardan foydalanildi.

**Kalit so'zlar:** pul bozori, kapital bozori, depozit sertifikatlari, veksel, obligatsiya, aksiya, qarz majburiyatları, qimmatli qog'ozlar, kreditli moliyalashtirish, qarzli moliyalashtirish, depozitli moliyalashtirish, ulushli moliyalashtirish, kapital, banklararo kredit, repo.

**Abstract:** The study of sources and methods for the formation of banking resources allows for banking assets operations depending on the nature of the resources. Therefore, in this article, market mechanisms for the formation of banking resources of money and capital were studied. The characteristics of the money market and capital market instruments were used for the analysis. The analysis also mentions the structure of liabilities and capital of domestic banks in 2018-2022. According to the results of the analysis, the formation of banking resources in Uzbekistan is based on the need for the effective use of money market instruments and the development of the capital market in this regard. Situational and structural methods were used in the analysis process.

**Key words:** money market, capital market, certificates of deposit, bills, bonds, shares, debentures, securities, credit financing, debt financing, deposit financing, equity financing, equity, interbank credit, repo.

**Аннотация:** Исследование источников и способов формирования банковских ресурсов позволяет осуществлять банковские активные операции в зависимости от характера ресурсов. Поэтому в данной статье были изучены рыночные механизмы формирования банковских ресурсов денег и капитала. Для анализа были использованы характеристики денежного рынка и инструментов рынка капитала. Также в анализе упоминается структура пассивов и капитала отечественных банков в 2018-2022 годах. Согласно результатам анализа, формирование банковских ресурсов в Узбекистане основано на необходимости эффективного использования инструментов денежного рынка и развития в этой связи рынка капитала. В процессе анализа использовались ситуационные и структурные методы.

**Ключевые слова:** денежный рынок, рынок капитала, депозитные сертификаты, векселя, облигации, акции, долговые обязательства, ценные бумаги, кредитное финансирование, долговое финансирование, депозитное финансирование, долевое финансирование, собственный капитал, межбанковский кредит, репо.

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilishning 2020-2025-yillarga mo'ljallangan strategiyasida tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash va kapitallashish darajasini oshirish bo'yicha vazifalarning qo'yilganligi tijorat banklari resurslari shakllanishining barqaror o'sishini ta'minlash masalasini chuqr o'rganish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Bank mablag'lari manbalari bir qancha kategoriyalarga bo'linadi. Chek va jamg'arma hisobraqamlari shakllida quyi stavkalarda jalb etiladigan depozitlar bank mablag'lari manbalarining asosiy qismini tashkil etadi. Shuningdek, banklar aksionerlik kapitali, asosiy depozitlar va qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish orqali mablag'lar manbalarini shakllantirib boradi.

Bank resurslari shakllanishini tadqiq etish uning ichki va tashqi tahlillariga asoslanadi. Bunda jamiyatdagi moliyaviy-iqtisodiy jarayonlarning ta'siri, bank rentabelligi ko'rsatkichlari, bank moliyaviy holati ko'rsatkichlari,



bank boshqaruvi samaradorligi, bank boshqaruvchilarini va menejerlari, ichki auditorlari, nazoratchilar, mutaxassislarining darajalari (inson omili), boshqaruv organlarining qarorlari, milliy me'yoriy-huquqiy normalari, ichki risklar, joriy, retrospektiv, istiqbolli tahlillarni nisbiy va mutloq ko'satkichlar yordamida amalga oshirish lozim. Shuningdek, bank resurs bazasi mustahkamligiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni aniqlash obyektivlilik, muntazamlilik va intizomiylikka asoslanadi.

Banklar tomonidan barqaror mablag'lar manbalarini jaib qilish strategik yondashuvga asoslanadi. Barqaror mablag'lar bank uchun strategik jihaddan muhim ahamiyat kasb etishi va keng tushunchalarga asoslanishini inobatga olgan holda ularni alohida o'rghanish kerak, deb hisoblaymiz.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Xorijlik iqtisodchi olim Djozef Sinkining ta'kidlashicha moliyaviy tizimning asosiy vazifasi resurslarni joylashtirish bo'lib hisoblanadi. Uning fikricha an'anaviy bank tizimi nuqtai-nazaridan olib qaraganda banklar ikki xil jarayonda ishtirok etadi:

- 1) depozitlar jaib qilish (birinchi jarayon);
- 2) kreditlar berish (ikkinci jarayon).

Shuningdek, D.Sinki moliyaviy tizimning barqarorligini baholashda uchta parametrni keltirib o'tadi. Bular: joylashtirish samaradorligi, xarajatlar samaradorligi va qiymat samaradorligidir [1].

Piter S. Rouz esa, o'zining nashrlarida "jamg'armalar banklar amaliyotining muhim faktori hisoblanib, uzoq muddatli o'sish sur'atlarini ta'minlash uchun daromad olishga xizmat qiluvchi hamda qimmatli qog'ozlarni sotib olish va bank kreditlarini moliyalashtirishda foydalaniladigan kapitalning asosiy manbasini tashkil etadi" deya ta'kidlaydi. Shuningdek, olimning fikricha, bank boshqaruvi oldida depozitlarni samarali boshqarishda ularning xarajatlari darajasi va miqdori bilan bog'liq ikki asosiy masalani hal etish vazifasi turadi. Bular: mablag'larni jaib etishda qaysi turdag'i depozitlar bank xarajatlarini minimallashtiradi; qay tarzda bankning pul mablag'lari ko'rinishidagi talabiga muvofiq keluvchi depozit portfelini shakllantirish mumkin [2].

Rossiyalik iqtisodchi olim O. I. Lavrushin bank sektorida uzoq muddatli resurslarni shakllantirish iqtisodiyotning real sektorini kreditlash va ipoteka kreditlarini rivojlantirish imkonini beradi, deya ta'kidlab o'tadi. Shuningdek, uning fikriga ko'ra, hozirgi zamонавиy bank amaliyotda obligatsion qarz ko'rinishidagi mablag'larni jaib qilish instrumentidan samarali foydalanilmayapti [3].

E. P. Jarkovskayaning fikricha, bank iqtisodiy barqarorligining kafolati ustav fondi hisoblanadi [4].

Sh. Abdullayeva, T. Qoraliyev va U. Ortiqov tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash uchun muddatli va xorijiy valyutadagi depozitlar bo'yicha foiz darajalarini oshirish xususida o'z takliflarini keltirib o'tadilar [5].

Lekin shuni alohida ta'kidlash lozimki, banklarning balansdan tashqari operatsiyalarining resurslarni shakllantirishdagi roli alohida tadqiqot obyekti sifatida yetaricha o'rjinalmagan. Balansdan tashqari operatsiyalar banklar tomonidan pul mablag'larni jaib qilish (passiv operatsiyalar) va ularni joylashtirish (aktiv) maqsadida ham amalga oshirilishi mumkin.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tahlil natijalariga ko'ra, O'zbekistonda bank resurslari shakllanishi bilan bog'liq muammolar asoslangan. Tahlil jarayonida tizimli yondashuv, ma'lumotlarni umumlashtirish, situatsion va strukturaviy usullardan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur maqolada bank resurslari shakllanishining bozor mexanizmlari ikki xil bozor ya'ni, pul bozori va kapital bozori nuqtai-nazaridan kelib chiqqan holda yoritib o'tiladi. Mazkur bozorlar moliyaviy bozor komponentlari bo'lib hisoblanadi.

Pul bozorlarida odatda qoplash muddati bir yilgacha bo'lgan qisqa muddatli va yuqori likvidli moliyaviy instrumentlar oldi-sotdisi amalga oshiriladi.

Bank resurslari shakllanishining pul bozori instrumentlariga quyidagilar kiradi:

- depozit va jamg'arma sertifikatlari;
- veksellar;
- obligatsiyalar;
- banklararo kreditlar;
- repo operatsiyalari.

Kapital bozori uzoq muddatli qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi amalga oshiriladigan moliya bozorining segmentidir. Investorlar kapital bozorida birlamchi va ikkilamchi bozorlar orqali ishtirok etishlari mumkin.



Bank resurslari shakllanishining kapital bozori instrumentlariga quyidagilar kiradi:

- aksiyalar;
- uzoq muddatli qarz majburiyatları.

Yuqorida qayd etib o'tilganlardan kelib chiqib, pul va kapital bozorining farqli jihatlarini quyidagi jadval ma'lumotlari orqali yoritib o'tamiz.

#### 1-jadval: Pul va kapital bozorining farqli jihatlar

No	Asosiy farqli jihatlar	Pul bozori	Kapital bozori
1.	Muddat	Qisqa	Uzoq
2.	Likvidlilik	Yuqori	Past
3.	Risk	Past	Yuqori
4.	Daromadlilik	Past	Yuqori
5.	Ishtirokchilar	Markaziy bank, tijorat banklari va nomoliyaviy tashkilotlar	Fond birjalari, tijorat banklari va nobank kredit tashkilotlari
6.	Iqtisodiyotga ta'siri	Iqtisodiyotda likvidlilikni ta'minlaydi	Iqtisodiyot barqarorligini ta'minlaydi

Jadval ma'lumotlaridan shuni ko'rish mumkinki, tijorat banklari pul va kapital bozorining aktiv ishtirokchilari hisoblanadi. Odatda, bank tizimi depozitlar jalb qilish va shu yo'l orqali kreditlar berish hisobiga foiz stavkalari o'rtasidagi farqdan asosiy foydasini shakllantirayotgan mamlakatlarda kapital bozorining rivojlanishiga ehtiyoj seziladi. Bunday mamlakatlardan bank tizimi investitsiyalarga muhtoj bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida mazkur mamlakatlarda kapital bozorining rivojlanishini talab etadi. Shuningdek, mamlakatda pul va kapital bozorining rivoji bir vaqtning o'zida iqtisodiyotda qisqa va uzoq muddatli talabni qondirishga xizmat qiladi.

Lekin shuni alohida ta'kidlash joizki, mamlakatda fond bozori kapitalizatsiyasi YALM miqdoridan oshib ketmasligi maqsadga muvofiqdir. Chunki mazkur holat iqtisodiyotda "ko'pik"larni vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Bunday holatda real qiymatdan bozor qiymati oshib ketadi.

Mazkur fikrimizga Uorren Buffett indikatorini misol qilamiz. Buffett indikatori butun amerika bozori aksiyalari bozor qiymatining ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar (YALM) miqdoriga nisbatini anglatadi. Agar bu indikator ko'rsatkichi 70-80% atrofida bo'lsa, fond bozorlariga sarmoya kiritish mumkinligini anglatadi. Agar bu indikator ko'rsatkichi 100%dan oshsa, tezroq riskli aktivlardan holi bo'lish va bozordan chiqish kerakligini anglatadi [6].

Shuningdek, AQShda 2010-yil 21-iyulda qabul qilingan Dodd-Frank qonuniga asosan banklarning o'z mablag'lari hisobidan moliyaviy bozorlarda savdo qilishi ta'qiqlandi [7].

Yuqorida ta'kidlab o'tilganlar bilan bir qatorda, pul va kapital bozorlarida bank resurslari shakllanishi mexanizmi qanday tarkibiy elementlar hisobiga amalga oshirilishi xususida ham alohida to'xtalib o'tish joiz deb hisobladik.

Buni quyidagi jadval ma'lumotlari asosida izohlab o'tamiz.

#### 2-jadval: Bank resurslari shakllanishi mexanizmi elementlari

No	Shakllanish yo'llari	Metodlari	Bozor instrumentlari
1.	Kreditli moliyalashtirish	- banklararo kreditlar; - Markaziy bank kreditlari.	
2.	Depozitli moliyalashtirish	- depozit va omonatlarni jalb qilish; - joriy hisobraqamlarga mablag'lari jalb qilish.	Pul bozori instrumentlari
3.	Qarzli moliyalashtirish	Qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish	
4.	Ulushli moliyalashtirish	Aksiyalarni muomalaga chiqarish	Kapital bozori instrumentlari
5.	Balansdan tashqari operatsiyalar	- shartli majburiyatlar; - kafolatlar; - bozor operatsiyalari	Pul va kapital bozori instrumentlari



Yuqoridagi jadval ma'lumotlari orqali shuni xulosa qilish mumkinki, odatda bank majburiyatları, ya'ni banklarning jalb qilingan mablag'lari asosan pul bozori orqali shakllanadi. Shuningdek, bank kapitali, ya'ni o'z mablag'lari kapital bozori instrumentlari orqali shakllanadi. Bu esa, o'z navbatida bank majburiyatları va kapitalining o'ziga xos jihatlari va farqli xususiyatlarini o'zida namoyon qiladi. Moliyalashtirish manbalari, yo'llari, metodlari va instrumentlari nafaqat bank resurslarining shakllanish jarayoniga balki bankning moliyaviy faoliyati(aktiv operatsiyalari)ga ham ta'sir qiladi.

O'zbekistonda bugungi kunda banklar tomonidan resurslarni shakllantirishda pul bozori instrumentlaridan samarali foydalanish hamda mamlakatda kapital bozorini rivojlantirishni taqozo etadi. Chunki investorlar oldida qaysi bozorga sarmoya kiritish yuzasidan aniq sabab va tanlovlardan mayjud bo'lishi kerak deb o'ylaymiz.

Quyidagi jadval ma'lumotlari orqali O'zbekiston tijorat banklari majburiyatları tarkibini ko'rib o'tamiz.

**3-jadval: O'zbekiston tijorat banklari majburiyatları tarkibi, foiz hisobida<sup>[8]</sup>**

№	Ko'rsatkichlar	Yillar				
		2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.
1.	Depozitlar	37,3	41,1	37,3	41,8	45,4
2.	Markaziy bankning vakillik hisobvarag'i	0,27	0,8	0,4	0,2	0,2
3.	Boshqa banklarning mablag'lari	3,7	4,9	5,2	4,8	8,7
4.	Olingan kreditlar va lizing operatsiyalari	55,6	47,5	49,3	46,5	39,1
5.	Muomalaga chiqarilgan qimmatli qog'ozlar	0,01	1,30	3,1	2,8	2,3
6.	Boshqa majburiyatlar	3,2	4,6	4,7	4,0	4,3

O'zbekiston tijorat banklari majburiyatları tarkibida depozitlar hamda olingan kreditlar va lizing operatsiyalari ulushi 2018–2022-yillarda o'tacha qariyb 88,2 foizni tashkil etmoqda. Bu esa, banklar tomonidan resurslarni shakllantirishda kredit va depozitli moliyalashtirish manbalari asosiy hamda qarzli moliyalashtirish manbalari juda kam ulushga ega ekanligidan dalolat beradi. Shuningdek, mazkur holat banklar tomonidan pul bozorlarida banklararo kreditlar va qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish yo'li resurslarni jalb qilish amaliyoti yetarli darajada rivojlanmaganligidan dalolat beradi. Banklararo majburiyatlarning umumiyligi majburiyatlardagi ulushi 15 foizdan oshmasa maqbul holat sifatida baholanadi. O'zbekiston banklarida mazkur ko'rsatkich 2018–2022-yillar mobaynida o'tacha 5,5 foizni tashkil etmoqda. Shuningdek, AQShda banklararo majburiyatlar bo'yicha limit bank umumiy kapitalining 25 foizidan oshib ketmasligi talab etiladi.

Rossiya Federatsiyasida tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslar omonatlari bo'yicha foiz stavkalarini shakllantirishda ma'lum me'yorlar mayjudligini ham alohida ta'kidlab o'tish lozim deb o'ylaymiz. Xususan, Rossiya Federatsiyasi Markaziy bankining 2015-yil 23-mart "Omonatlar daromadililigining bazaviy darajasini aniqlash to'g'risida(Ob opredelenii bazovogo urovnya doxodnosti vkladov)"gi №3607-U-sonli Farmoyishiga asosan omonatlar daromadililigining bazaviy darjasini Rossiya banki (Rossiya Federatsiyasi Markaziy banki) tomonidan har oyda keyingi oy uchun Rossiya bankining 2014-yil 27-fevraldagagi "Kredit tashkilotlari tomonidan jismoniy shaxslar omonat shartnomalari bo'yicha foiz stavkalari haqidagi ma'lumotlarni oshkor qilish to'g'risida(O poryadke raskritya kreditnyimi organizatsiyami informatsii o protsentnykh stavkakh po dogovoram bankovskogo vklada s fizicheskimi litsami)"gi №3194-U-sonli Farmoyishiga asosan banklardan olingan omonatlar bo'yicha maksimal foiz stavkalari bo'yicha ma'lumotlarga tayangan holda aniqlanadi. Shuningdek, joriy oyda omonatlar daromadililigining bazaviy darjasini oldingi oyda eng ko'p omonatlar jalb qilgan 2/3 qism banklarning omonatlar bo'yicha maksimal foiz stavkalari o'rtaча arifmetik stavkasidan kelib chiqib aniqlanadi. Shu bilan bir qatorda, omonatlar daromadililigining bazaviy darjasini ko'rsatkichi barcha banklar rasmiy internet saytlariga har oy boshlanishidan 3 ish kuni oldin yuboriladi. Banklar uchun omonatlar daromadililigining bazaviy darjasini rubl, AQSh dollarini va yevro uchun alohida muddatlar bo'yicha (talab qilib olinguncha, 90 kungacha, 91 kundan 180 kungacha, 181 kundan 1 yilgacha, 1 yildan ortiq) hisoblanadi. Mazkur tartibga soluvchi mexanizmning kam-chilik tomoni shundan iboratki, jismoniy shaxslar omonatlari bo'yicha foiz stavkalari darajasining pasayishiga sabab bo'ladi. Lekin, uning ijobji samaradorligi shundan iboratki, bu holat banklar litsenziyalari bekor qilinishi riskini kamaytirishga sabab bo'lishi mumkin. Agar alohida olingan bankda omonatlar bo'yicha foiz stavkalari Rossiya Banki tomonidan e'lon qilingan bazaviy ko'rsatkichdan yuqori bo'lsa, bu tartib bizarlik deb hisoblanadi.



maydi. Banklarda omonatlar bo'yicha foiz stavkalari bazaviy stavkaning 2 foizli punktidan oshib ketmasligi kerak va bu chegaraga qadar amal qilish tavsiya etilgan. Agarda, banklarda omonatlar bo'yicha foiz stavkalari bazaviy stavkadan 2 foizli punktga oshib ketsa, unda mazkur bank Omonatlarni sug'ortalash bo'yicha davlat agentligiga qo'shimcha stavka bo'yicha sug'urta badalini to'lab berishi kerak. Agarda, omonatlar bo'yicha foiz stavkalari bazaviy stavkadan 3 foizli punktga oshib ketsa, unda mazkur bank sug'urta badalini yuqori stavkada to'lab berishi kerak bo'ladi [9].

O'zbekistonda banklar jalb qilinadigan depozitlar (omonatlar) bo'yicha foiz stavkalari darajasini Markaziy bank qayta moliyalash stavkasi hamda inflyatsiya darajasining so'nggi yillardagi o'zgarishidan kelib chiqqan holda belgilaydilar.

Markaziy bank depozitlar (omonatlar) bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkasi qayta moliyalash stavkasidan oshgan banklarda foiz siyosatining, shu jumladan, foiz darajasining asosli ekanligini aniqlash maqsadida mazkur banklarning foiz siyosatini va moliyaviy holatini alohida o'rganib chiqadi [10].

**4-jadval:** O'zbekiston tijorat banklari kapitali tarkibi, foiz hisobida [8]

№	Ko'rsatkichlar	Yillar				
		2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.
1.	Ustav kapitali	73,7	82,1	76,5	77,2	75,2
2.	Qo'shimcha kapital	0,3	0,3	0,7	1,0	1,3
3.	Zaxira kapitali	11,0	7,5	8,9	11,9	9,2
4.	Taqsimlanmagan foyda	14,9	10,1	13,8	9,9	14,3

O'zbekiston tijorat banklari kapitali tarkibida qo'shimcha kapital kam ulushga ega ekanligini ko'rsatmoqda. Bu esa, o'z navbatida bank kapitali bozor qiymatining pastligidan dalolat beradi. Bank kapitali shuningdek, bank faoliyat yuritishining reguliyatori hisoblanadi. Bank kapitali miqdorining yuqoriligi bank mijozlari bazasining mustahkamlanishiga hamda kutilayotgan zarar va risklarni qoplashda asosiy manba bo'lib hisoblanadi.

Bank kapitali bankni kutilishi mumkin bo'lgan barcha risklardan himoya qilishi natijasida bankrotlikning oxirgi himoya chizig'i bo'lib sanaladi. Kapital, shuningdek kelajakda bankning kreditlash faoliyatini rivojlan Tirishga va kengaytirishga xizmat qiluvchi muhim omil hisoblanib, uzoq muddatli mablag'larning kelib qo'shilishi(shakllanishi)ga xizmat qiladi.

Xorijiy banklar faoliyati amaliyoti va nazariy tadqiqotlarda "bank kapitali yetarliligi" tushunchasi keng qo'llaniladi. Bu ko'rsatkich joylashtirilgan aktivlar va jalb qilingan resurslar miqdorining o'zaro bog'liqligini bildiradi. Kapital kredit operatsiyalarini manbalaridan biri va qarz mablag'larini qaytarish kafolati hisoblanadi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning integratsiyalashuvi natijasida barcha mamlakatlar banklari uchun maqbul bo'lgan kapital yetarliligini aniqlash muammosi yuzaga keldi. Bazel qo'mitasi va bank tizimi rivojlangan katta o'nlik (G10) mamlakatlari (Kanada, Fransiya, Germaniya, Italiya, Yaponiya, Shvetsiya, Shveytsariya, AQSh, Benilyuks, Buyuk Britaniya) kapital yetarliligi ko'rsatkichini eng muhim ko'rsatkich hisoblab, xalqaro iqtisodiy aloqalarning integratsiyalashuvi xalqaro standartlarga muvofiq kapital yetarlilik darajasini tartibga solishni talab qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston bank tizimi bugungi kunda investitsiyalarga muhtoj. Banklar resurslari asosan aholi va xo'jalik subyektlaridan depozit mablag'larini jalb qilish va ularni foiz marjasini bilan qayta joylashtirish asosida asosiy operatsiyalarini amalga oshirib kelmoqda.

Bozor kon'yukturasi o'zgarib borishi sharoitida banklar xizmat turlarini kengaytirish hamda bank biznesini samarali yuritishda yangi moliyaviy mablag'lar manbalarini izlab topishlari talab etiladi.

O'zbekiston tijorat banklarida talab qilib olingucha depozitlar barqarorligini ta'minlash maqsadida ularning muddatları, qoldiqlari va ma'lum muddat davomida foydalanish mumkin tranzaksiyalar chegaralarini aniqlab olish asosida yangi turdagı transaksion depozit turlarini joriy etish lozim bo'lib hisoblanadi.

Banklararo resurs bozorida jalb etilayotgan depozitlar bo'yicha bozor stavkalarini qo'llash amaliyotini joriy qilish hamda bu borada depozitlarning miqdori, muddati va qoldiqlari bo'yicha foiz stavkalarini diversifikatsiya qilib borish zarur deb hisoblaymiz.

Shuningdek, O'zbekiston tijorat banklari amaliyotida depozit turlarining jozibadorligini oshirish maqsadida fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash tizimini qayta ko'rib chiqish lozim. Bitta bankda ochilgan fuqaroning barcha turdagı depozitlarini bir marta kafolatlash tizimini joriy qilish lozim.



Banklar resurslari shakllanishining bozor mexanizmlari xususidagi nazariy qarashlarni shakllantirishda banklarning turlari va xususiyatlari bo'yicha yondashishni e'tiborga molik masala sifatida qaramadik. Sababi, bugungi kunda zamonaviy iqtisodiyotda tijorat banklari faoliyati universal xususiyatga asoslangan. Shveytsariyalik olim va bankir Xans-Ulrix Derig o'zining "Universal bank – kelajak banki"b deb nomlangan asarida banklar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar universalligi muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab o'tadi [11].

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Д.Синки. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг – “Альпина Диджитал”, 2002 г.
2. Роуз Питер С. Банковский менеджмент. Пер.с англ. со 2-го изд.-М.: Дело, 1997. – С. 768.
3. Лаврушин О.И. Роль кредита и модернизация деятельности банков в сфере кредитования. – Монография. / коллектив авторов. – М.: КНОРУС. 2012. –С.272.
4. Жарковская Е.П. Банковское дело: Учебник/7-е изд., исп. и доп.–М.: Омега-Л, 2010. – С.479.
5. Abdullayeva Sh.Z. Qoraliyev T.M. Ortiqov U.D. "Bank resurslari va ularni boshqarish". – Monografiya. – Т.: "IQTI-SOD-MOLIYA". – 2009. – В.104.
6. <https://www.forbes.ru/newsroom/milliardery/421125-predskazavshiy-krah-dotkomov-indikator-baffeta-obnovil-istoricheskiy>.
7. <https://www.federalreserve.gov> (AQSh Federal Rezerv tizimi) – internet sayti ma'lumotlari.
8. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki statistik byulleten. –2020, 2021, 2022.
9. <https://www.cbr.ru> (Rossiya Federatsiyasi Markaziy banki)-internet sayti ma'lumotlari.
10. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015 yil 13 iyundagi 14/1-sonli qaroriga ilova. "Tijorat banklari tomonidan jalb qilinadigan depozitlar (omonatlar) bo'yicha foiz stavkalarini shakllantirish mexanizmi to'g'risidagi NIZOM".
11. Дериг Х-У. Универсальный банк – банк будущего. Финансовая стратегия на рубеже веков. – М.: Международные отношения, 1999. – С.384.

# Yashi

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 11-12**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.

